


## V. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

2020 yilning yanvar-mart oylarida ro‘yxatga olingan jami kichik tadbirkorlik (biznes) sub’ektlarining soni 17847 tani tashkil qildi. Viloyat bo‘yicha kichik tadbirkorlik korxona va tashkilotlarining soni Urganch shahrida 4251 ta, Xiva shahrida 1736 ta, Xiva tumanida 1498 ta, Urganch tumanida 2009 ta, Xonqa tumanida 1372 ta, Yangiariq tumanida 1042 ta, Xazorasp tumanida 1183 ta, Gurlan tumanida 1117 ta, Qo’shko‘pir tumanida 1124 ta, Bog‘ot tumanida 894 ta, Shovot tumanida 821 ta va Yangibozor tumanida 800 tani tashkil qildi.


**Yangi tashkil etilgan kichik biznes sub’ektlari sonining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi  
2020 yil yanvar–mart holatiga (jamiga nisbatan foizda)**



Eng ko‘p kichik biznes sub’ektlari savdo sohasida (jami tashkil etilgan sub’ektlarning 28,1 foizi), sanoat tarmog‘ida (24,2 foiz), qishloq,o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida (23,2 foiz), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar (6,5 foiz) tashkil etilgan.

2020 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) hududlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Urganch shahrida 27,1 birlikda, Xiva shahrida 17,8 birlikda, Yangiariq tumanida 13,0 birlikda, Urganch tumanida 13,0 birlikda, Xiva tumanida 11,8 birlikda Yangibozor tumanida 13,1 birlikda Gurlan tumanida 10,5 birlikda bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 7-9 birlik oralig'ida Xazorasp, Bog'ot, Ko'shko'pir, Xonqa, Shovot tumanlarida ushbu ko'rsatkich past bo'lib qolmoqda.

**2020 yilning yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).**



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
*(birlik, fermer va dehqon xo 'jaliklarisiz)*

	<i>2020 yil 1 aprel holatiga ro'yxatga olingan</i>	<i>2020 yil yanvar-mart oylarida</i>	
		<i>tashkil topdi</i>	<i>tugatildi</i>
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	<b>17847</b>	<b>1633</b>	<b>93</b>

*shaharlar:*

Urganch	4251	283	19
---------	------	-----	----

Xiva

1736 133 10

*tumanlar:*

Bog'ot	894	110	-
--------	-----	-----	---

Gurlan

1117 159 15

Qo'shko'pir

1124 150 2

Urganch	2009	137	7
---------	------	-----	---

Xazorasp

1183 82 2

Xonqa	1372	135	16
-------	------	-----	----

Xiva

1498 93 -

Shovot	821	69	2
--------	-----	----	---

Yangiariq

1042 116 18

Yangibozor	800	166	2
------------	-----	-----	---

2020 yil yanvar-mart oylarida viloyatda ro‘yxatga olingan yangi kichik tadbirkorlik (biznes) sub’ektlari soni 1633 tani tashkil topgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich Urganch shahrida 283 ta, Urganch tumanida 137 ta, Xiva shahrida 133 ta, Xonqa tumanida 135 ta, Qo‘siko‘pir tumanida 150 ta, Xazorasp tumanida 82 ta, Xiva tumanida 93 ta, Shovot tumanida 69 ta, Yangiariq tumanida 116 ta, Gurlan tumanida 159 ta, Bog‘ot tumanida 110 ta va Yangibozor tumanida 166 tani tashkil qildi.

2020 yil yanvar-martda yalpi hududiy mahsulotning 65,9 foizi (2019 yil yanvar-martoylarida 65,7 foiz) kichik biznes sub’ektlari tomonidan ishlab chiqarildi.

2020 yilning yanvar-martda kichik tadbirkorlik (biznes) sub’ektlari tomonidan:

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 697,0 mlrd. so‘mni (jami sanoat ishlab chiqarishining 31,4 foizi) yoki 2019 yilning yanvar-mart oyalariga nisbatan o‘sish sur’ati 117,6 foizni tashkil qildi;

- 1852,4 mlrd. so‘mlik qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarining ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) tashkil qilib, o‘sish sur’ati 104,0 foizni (qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklari yalpi mahsulotining 99,4 foizi) tashkil qildi;

-512,3 mlrd. so‘mlik investitsiyalar (umumiyligi investitsiyalar hajmining 63,4 foizi) o‘zlashtirildi va 2019 yilning yanvar-mart oyalariga nisbatan 118,0 foizni tashkil qildi;

- 512,7 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi hajmining 96,2 foizi) bajarildi va 2019 yilning yanvar-martga nisbatan 105,2 foizni tashkil qildi;

- avtomobil transporti yuk aylanmasining 2,0 foizga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 86,7 foizi), yo‘lovchi aylanmasining esa 1,9 foizga (umumiyligi yo‘lovchi aylanmasining 96,1 foizi) ko‘payishi ta’minlandi;

-chakana tovar aylanmasi umumiyligi hajmining 81,6 foizi yoki 1505,1 mlrd. so‘mi (o‘sish 107,0 foiz) va xizmatlar umumiyligi hajmining, mos ravishda 64,6 foizi yoki 977,5 mlrd. so‘mi (o‘sish 105,1 foiz) shakllantirildi;

- 30,7 mln AQSH dollari (umumiyligi eksport hajmining 82,9 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi. 35,7 mln. AQSH dollari (umumiyligi import hajmining 60,1 foizi) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi.

**Viloyat iqtisodiyot tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) umumiy  
hajmidagi kichik tadbirkorlik(biznes)sub'ektlari ulushi  
(2020 yilning yanvar-mart)**

	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmi, mlrd.so'm</i>	<i>Kichik tadbirkorlik sub'ektlari mahsuloti (ish, xizmat) hajmida xususiy sektor ulushi, % hisobida</i>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1852,4	99,4
Sanoat	697,0	31,4
Qurilish	512,7	96,2
Chakana savdo	1505,1	81,6
Yuk tashish, mlntn.	5,1	91,3
Yo'lovchi tashish, mln.kishi	84,0	94,0
Eksport, mln. AQSH doll.	30,7	82,9
Import, mln. AQSH doll.	35,7	60,1

**Iqtisodiyot tarmoqlaridakichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi  
(foizda)**

